




# SAMARQAND VILOYATIDA INNOVATSION FAOLIYAT

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash bo'yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovatsion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo'llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega. Samarqand viloyatida 2019- yilda 51 ta korxon va tashkilotlar birinchi marta innovatsion mahsulot, ishlar, xizmatlarni o'zlashtirgan bo'lib, ular tomonidan 283291,9 mln. so'mlik innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarildi.

## 2019- yilda Samarqand viloyati bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxon va tashkilotlar

	Jami	2019 yilda birinchi marta o'zlashtirgan	ulardan:	
			2017-2018 yillarda birinchi marta o'zlashtirgan	2017-2019 yillarda takomillashtirilgan
Korxon va tashkilotlar soni	215	51	79	105
Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz), mln. so'm	743668,1	283291,9	301876,6	158499,6
Bajarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi (QQS va aksizsiz), mln.so'm	729994,4	262882,2	309940,6	157171,7


## 2019 yilda Samarqand viloyati bo'yicha o'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxon va tashkilotlarning ulushi, foizda





## 2019- yilda moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, foizda

Moliyalashtirish manbaalari bo'yicha innovatsiyalarga xarajatlarning eng katta qismini tijorat banklarning kredit mablag'lari hisobiga to'g'ri keldi.



## 2019- yilda innovatsion faoliyat turlari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mln. so'm

	Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	Texnologik innovatsiyalarga jami (kapital va joriy) xarajatlar	Marketing innovatsiyalarga xarajatlar	Tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	Texnologik innovatsiyalar turlari bo'yicha xarajatlar	
					Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar	Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar
Samarqand viloyati	248427,8	239961,3	4233,2	4233,2	215345,1	24616,2



## 2019- yilda joriy qilingan innovatsiyalar, foizda

2019- yilda Samarqand viloyatida joriy qilingan innovatsiyalarning asosiy qismi texnologik innovatsiyalar bo'lib, jami innovatsiyalarning 96,5 % tashkil qildi.

### 2019- yilda joriy qilingan innovatsiyalar soni

	Jami joriy qilingan innovatsiyalar	o'z kuchi bilan	shu jumladan: tadqiq qilinganlar: ulardan :			
			boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda	ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda	oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda	boshqa tashkilotlar tomonidan
Texnologik innovatsiyalar	64	49	1	-	-	14
Marketing innovatsiyalar	1	1	-	-	-	-
Tashkiliy innovatsiyalar	1	1	-	-	-	-



***Innovatsiya** deb, yangi ko'rinishda mahsulot (tovar, ish, xizmat) yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishi joriy qilinishini, yoki ushbu jarayonining takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarining joriy qilinishini, ish o'rinlari tashkil etishni yoki tashqi aloqalar o'rnatilishini o'zida mujassamlashtirgan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi.*